

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

SUN'IY INTELLEKT- TO'RTINCHI SANOAT INQILOBINING ASOSI

Madraximov Azamat Adilovich
Namangan davlat pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi
Email: azamatmadrakhimov80@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada sun'iy intellektning to'rtinchi sanoat inqilobining yuragi sifatidagi ahamiyati. Bu texnologiya odam tasavvuridan tashqariga chiqib, ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish, qaror qabul qilish, avtomatlashtirish va innovatsiyalarni jadallashtirish orqali insoniyat oldida misli ko'rilmagan, ammo ayni paytda global muammolar, vaziyat va vaziyatga doir muammo va yechimlarni keltirib chiqarishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, to'rtinchi sanoat inqilobi, ma'lumotlarni tahlil qilish, real vaqt rejimi, raqamli texnologiya

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ – ОСНОВА ЧЕТВЕРТОЙ ПРОМЫШЛЕННОЙ РЕВОЛЮЦИИ

Мадрахимов Азамат Адилевич,
исследователь
Наманганский государственный
педагогический институт
Email: azamatmadrakhimov80@mail.ru

Аннотация: В статье анализируется значение искусственного интеллекта как основы четвертой промышленной революции. Было проанализировано, что эта технология выйдет за рамки человеческого воображения и создаст решения проблем, ситуаций и ситуаций, беспрецедентных для человечества, но также и глобальных, посредством глубокого анализа данных, принятия решений, автоматизации и ускорения инноваций.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, четвертая промышленная революция, анализ данных, режим реального времени, цифровые технологии.

ARTIFICIAL INTELLIGENCE IS THE FOUNDATION OF THE FOURTH INDUSTRIAL REVOLUTION

Madrakhimov Azamat Adilovich
researcher,
Namangan State pedagogical institute

Abstract: The article analyzes the importance of artificial intelligence as the basis of the fourth industrial revolution. It was analyzed that this technology will go beyond human imagination and create solutions to problems, situations and situations unprecedented for humanity, but also global, through deep data analysis, decision making, automation and acceleration of innovation.

Keywords: Artificial intelligence, fourth industrial revolution, data analysis, real-time mode, digital technologies.

Kirish: Ilm-fan va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal taraqqiyot etib borayotgan bugungi sharoitda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida davlat va jamiyat boshqaruvi, iqtisodiyot, san'at, ijtimoiy himoya, ta'lim, tibbiyot, bandlik, qishloq xo'jaligi, mudofaa, xavfsizlik, tizimi va boshqa sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish amalga oshirilib kelinmoqda.

O'zbekistonda ham axborotlashtirish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali 2030-yilga qadar innovatsion taraqqiy etgan yetakchi davlatlar qatoridan o'rin egallash ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Qayd etish joizki, "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni yili" da axborot texnologiyalari va raqamlashtirish borasida jiddiy o'zgarishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, O'zbekistonda 2025-yil - "Atrof muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda "Aholiga davlat ijtimoiy xizmatlari va yordam taqdim etish tartib-taomillarini avtomatlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar mamlakatimizda raqamlashtirishni joriy qilishga qaratilgan. Shu bilan birga, so'nggi yillarda axborotlashtirish va ilg'or texnologiyalarni turli sohalarida tadbir etish borasida chora-tadbirlar natijasida O'zbekistonda AKT va sun'iy intellekt sohasida o'ziga xos salohiyat asoslari yaratildi. Bu borada Innovatsion rivojlanish vazirligi va vazirlik tizimidagi tashkilotlar, AKT, bo'yicha ilmiy tadqiqot markazlari, oliy ta'lim muassasalari va ularning iqtidorli bitiruvchilari hamda texnoparklar, xususiy sektordagi bir qator tashkilotlar faoliyatini alohida e'tirof etish mumkin. Shuningdek, sun'iy intellekt va zamonaviy axborot texnologiyalari yo'nalishida Farg'ona shahridagi maktablarda "Aql maktabi" dasturi, Andijon viloyatida "Monterra" ekin maydonlarining holatini baholovchi onlayn platforma joriy etilgan bo'lsa, Toshkent viloyatining Nurafshon shahrida "Aqlli shahar", Toshkent shahrida esa "Xavfsiz shahar" va "Raqamli Toshkent", loyihalari amalga oshirish rejalashtirilgan.

Adabiyotlar tahlili: Ma'lumki, zamonaviy sun'iy intellekt turli amallarni bajarishga mo'ljallangan algoritm va dasturiy tizimlardan iborat bo'lib, inson ongi bajarishi mumkin bo'lgan bir qancha vazifalarni axborot bazasiga kiritilgan ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Nemis muhandisi, iqtisodchisi va Jahon Iqtisodiy Forumi (WEF) asoschisi. 1971-yilda tashkilotga asos solganidan beri WEF raisi sifatida faoliyat yuritib kelayotgan Klaus Martin Shvabning "To'rtinchi sanoat inqilobi" asarida ayni kundagi sanoat inqilobining rivojlanish tendensiyalari, yutuqlari va kamchiliklari batafsil bayon etilgan. Shuningdek, sun'iy intellekt murakkab tahlillar va katta ma'lumotlar bilan ishlovchi dasturlarni o'z ichiga olib, mantiqli izchil mulohaza qilish hamda tavsiya berish qobilyatiga ega "aqli" texnologiya hisoblanadi. Mutaxassislar tomonidan sun'iy intellektga to'rtinchi sanoat inqilobining asosi sifatida qaralmoqda.

Mutaxassislar fikricha, aholini ijtimoiy ximoya qilishning asosini ijtimoiy yordam, ijtimoiy sug'urta va bandlik bilan bog'liq dasturlar tashkil qiladi. Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy sohada, xususan, sog'liqni saqlash, ta'lim, bandlik, ijtimoiy himoya va boshqa yo'nalishlarda sun'iy intellekt va zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish keng tus olmoqda. Axolini ijtimoiy himoya qilish sohalarida rivojlanayotgan davlatlarda amalga oshirilayotgan muvaffaqiyatli xorijiy tajribalardan quyidagi loyihalarni ko'rib chiqish mumkin. Masalan, Janubiy Afrika Respublikasida amalga oshirilgan "Harambee" loyihasi

ijtimoiy yoshlar bandligini ta'minlashga ko'maklashishga yo'naltirilgan bo'lib, ushbu dastur sun'iy intellekt yordamida turli me'yorlarga asosan tegishli bosh ish omilini bayon qiladi.

Klaus Shvab o'zining "To'rtinchi sanoat inqilobi" asarida MTI professori Sherri Terkl bergan ma'lumotlar ya'ni, o'smirlarning 44 foizi hech qachon, sport bilan shug'ullanayotganda oila yoki do'stlar bilan birga ovqatlanayotganda ham, telefondan ajralmasligini keltiradi. Yuzma-yuz suhbatlar onlayn munosabatlar tomonidan chetga surib tashlagan. Ijtimoiy tarmoqlarda mukkasidan ketgan yoshlarning butun bir avlodi o'zgalarni tinglash, suhbatdoshining ko'ziga qarash yoki tana harakatini tushunish qobiliyatiga ega bo'lmasligi mumkin, degan qo'rquvlar bor.

Mobil texnologiyalarga munosabatimiz muhokama markazida. Doimo aloqada bo'lish o'ta muhim boylıklarimizdan biri – biroz to'xtab, mulohaza yuritish va hech qanday texnologiya va ijtimoiy tarmoq vositasiz mazmunli suhbat qurishning yo'qolishiga olib kelishi mumkin. 1971-yilda iqtisodiyot yo'nalishi bo'yicha "Nobel" mukofotining 1978-yilgi laureati Herbert Saymon "axborot ko'pligi e'tiborning kamayishiga olib keladi" deb ogohlantirgan. Qaror qabul qiluvchilar o'ta ko'p axborot ostida qolib ketgan va doimiy zo'riqish xolatida. "Hamma narsa tezlashayotgan zamonda sekin yurishchalik yoqimli narsa bo'lmas kerak, deb yozadi sayohat ocherklari yozuvchisi Piko Ayer "Chalg'ishlar davrida e'tibor berishdan-da hashamliroq ish yo'q. Doimiy harakat asrida esa hech narsa tinch o'tirishdek dolzarb emas", deb aytib o'tgan.

Metodologiya: Sun'iy intellekt ijtimoiy va boshqa sohalarga joriy qilishda shaxsga oid ma'lumotlar daxlsizligi, ularni saqlash va boshqarish muhim ahamiyatga ega. Chunki, sun'iy intllektdan foydalanishning axloqiy jihatlari ayniqsa AQSH, Buyuk Britaniya, Yevropa ittifoqiga a'zo davlatlar va yetakchi xalqaro tashkilotlar diqqat markazida bo'lib, inson huquqlari va shaxsiy ma'lumotlar masalasi hamda sun'iy intellektdan siyosiy va buzg'unchi maqsadlarda foydalanish xavfi dolzarb hisoblanadi. Ayrim davlatlar, xususan Xitoy va Rossiyada sun'iy intellekt va AKT dan fuqorolar shaxsiy huquqiy va erkinliklarni cheklash va siyosiy maqsadlarda foydalanilmoqda, degan ayblovlar yangramoqda. Shuning uchun sun'iy intellektdan foydalanishning huquqiy asoslarini yaratishda bu masalalarga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Shuningdek, sun'iy intellekt va AKTni joriy qilishda shaxsga doir ma'lumotlar va shaxsiy hayotga oid huquqlar hamda ulardan milliy xavfsizlikni ta'minlash yo'lida foydalanishda muvozanatni saqlash muhim axamiyatga ega.

Xulosa: Mamlakatimizda sun'iy intellekt imkoniyatlari va texnologiyalarini ijtimoiy ximoya dasturlarida qo'llash imkoniyatlari va zaruriyatlari mavjud bo'lib, tegishli dasturlash yo'nalishlaridagi yetakchi mahalliy mutaxassislar va xorijiy kompaniyalarni jalb qilgan holda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish va qo'llash maqsadga muvofiq. Ta'kidlash joizki, sun'iy intellekt yoki turli dasturiy ta'minotlar va AKTni tegishli sohalarga joriy qilishda yuzaki yondashuv, birinchidan, loyihalarning kutilgan natija bermasligiga, ikkinchidan, sarflangan byudjet mablag'larning samarasiz bo'lishiga, uchinchidan, zamon talabiga mos bo'lmagan dastur va tizimlar kiber jinoyatchilar nishoniga aylanish, milliy xavfsizlikka putur yetkazishi hamda yopiq va shaxsiy ma'lumotlarning sizib chiqishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun bunday davlat dasturlari sohaning yetakchi mahalliy va xorijiy mutaxassislari hamda kompaniyalari tomonidan amalga oshirish talab etiladi.

O'zbekistonda yangi texnologiyalar, jumladan, sun'iy intellektning to'rtinchi sanoat inqilobi dasturlari va boshqa sohalarga keng joriy qilish davlat va xususiy sektorda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni rag'batlantirib, mamlakatda raqamli iqtisodiyotni

rivojlantirish hamda har bir sohaga innovatsiyalarni kiritish imkoniyatlarini oshiradi. Shu bilan birga, zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanishga olib keladi.

Sun'iy intellekt- to'rtinchi sanoat inqilobining markazida turib, texnologik boshqaruvning asosiy qismi hisoblanadi. U ishlab chiqarishdan to xizmat ko'rsatishgacha bo'lgan ko'plab sohalarda jarayonlarni avtomatlashtirish, ma'lumotlarni ishlab chiqarish va samaradorligini nazorat qilish orqali dunyoni tubdan o'zgartirmoqda. Ammo bu texnologiyaga, balki undan ham oldin muammo va muammolarni bartaraf etish imkoniyatini bermoqda. Sun'iy intellekt insoniyatning kelajagini kuzatishda hal qiluvchi rol o'ynaydi va zamonaviy texnologiyalar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Bu barcha sohalarning rivojlanishi va taraqqiyoti uchun zamin bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 avgustdagi "Aholiga davlat ijtimoiy xizmatlari va yordam taqdim etish tartib-taomillarini avtomatlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4797-sonli qarori.
3. Klaus Martin Shvab, "To'rtinchi sanoat inqilobi", T., 2022 "Nihol nashr"